O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

UNIVERSITETY OF BUSINESS AND SCIENCE

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI KAFEDRASI

“DAK ga tavsiya etaman”	**“DAK ga tavsiya etaman”**
O’quv bo‘limi boshlig’i	**Ingliz tili va adabiyot kafedrasi mudiri**
_____ E.Abdurazzaqov	**_____M.Abduraxmonov**
“___”_____2025-yil	**“___”_____2025-yil**

Nurmamatova Mohlaroy Rasuljon qizi

JOHN UPDIKE NASRIY ASARLARI MIFOPOETIKASI

70111801 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Ped.f.f.d., (PhD), dotsent Sh. Ermanbetova

NAMANGAN- 2026

KIRISH

Dessertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Mazkur dissertatsiya amerikalik yozuvchi, shoir va adabiy tanqidchi John Updike (1932–2009) ijodidagi mifologik jihatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning iste’dodi hali hayotligi chog‘idayoq e’tirof etilgan. Bunga dalil sifatida yozuvchining ko‘plab mukofotlar bilan taqdirlanganini keltirish mumkin. Ular orasida ikki marta berilgan Pulitzer Prize (1982 va 1991-yillar), O. Henry Award (1966), Fransiyaning Order of Arts and Letters (1995), shuningdek AQShning National Medal of Arts (1989) mukofotlari mavjud.

Apdayk ijodini oʻrganishga oʻnlab monografiyalar, dissertatsiyalar hamda yuzlab ilmiy maqolalar bagʻishlangan boʻlib, ular nafaqat uning vatani — AQShda, balki Angliya, Fransiya, Kanada, Germaniya va Rossiyada ham yaratilgan. Ushbu tadqiqotning ahamiyati John Updike ijodida mifopoetik fikrlashning muhim rol oʻynashi bilan belgilanadi. XX asr Amerika adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biri boʻlgan yozuvchi, oʻz asarlarida mifologik strukturalar, arxetipik xarakterlar va abadiy syujetlarni zamonaviy badiiy tafakkur bilan birlashtiradi.

Jon Apdayk Amerika kichik shaharchasi va o'rta sinf materializmi bilan bog'liq eng buyuk, eng mashhur va ba'zan eng munozarali yozuvchilardan biri hisoblanadi. Ko'plab adabiyotshunoslar va tadqiqotchilar Apdaykning eng yaxshi asarlari uning oddiy Amerikani o'rganishi va amerikaliklarning ijtimoiy va shaxsiy his-tuyg'ularini, ularning kundalik hayotlarini tasvirlash uchun metaforaga boy nasrdan foydalanishi natijasida paydo bo'lganini ta'kidlashadi. Bundan tashqari, Apdaykning individual asarlarini muhokama qilishda ko'plab adabiyotshunoslar va tadqiqotchilar yozuvchining 20-asrning "afsonaviy davrida"1 afsonani qayta yozishga urinishlarini kuzatdilar. Tabiiyki, afsonaga qaytish modernistlar harakatining o'ziga xos xususiyati deb hisoblanganligi sababli, Apdaykning mashhur "Kentavr" romani yozilganidan yarim asr o'tgach, yozuvchining afsonadan foydalanishdagi badiiy niyatlarini qayta ko'rib chiqish juda muhimdir. Eng muhimi, afsonaviy elementlar va realistik tafsilotlarni uning "tarixiy yilnomalari" deb ataladigan asarlarida doimiylik sifatida yoki qarama-qarshilik sifatida ko'rishimiz mumkinligini aniqlash mumkin. Apdayk romanlari va hikoyalari mifologik motivlar va personaj arxetiplari bilan to'la. Shunday qilib, tadqiqot John Updike ijodini qahramonlik erkakligi, urush, terrorizm va Amerika perfektsionizmi bilan bir qatorda mifologik elementlar va qahramonlarining arxetip tasvirlarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqishga qaratilgan.

Taʻkidlash joizki yozuvchining koʻplab romanlaridagi mifologizm turli usullarda namoyon boʻladi: ba'zan u yashirin (implitsit) tarzda ifodalanadi “Quyon” tetralogiyasi, “Ferma”, “Er-xotin juftliklar”, “Keling, turmush quraylik”), ba'zan esa realistik kundalik hayot bilan yonma-yon mavjud boʻladi (“Istvik jodugarlari”, “Braziliya”), yoki metaforalar orqali aks ettiriladi (“Kentavr”).Apdaykning oʻzi intervyularidan birida shunday

degan: “Men hali miflardan xoli bo‘lgan birorta ham kitob yozganim yo‘q.”
Yozuvchi o‘z asarlarida arxetipik sxemalardan foydalanishini ham ochiq tan oladi: “Roman uchun yangi shakl va yangi struktura izlashning ma’nosi — aslida bir xil, o‘lmas syujetlarni yangicha ifodalashdir. Har bir ijodkor, qaysi asrda va qaysi san’at turida ijod qilishidan qat’i nazar, aynan shu syujetlarga qayta-qayta murojaat qiladi.”
John Updike asarlarida nafaqat voqelikning soddalashtirilmagan, balki unung chuqur ijtimoiy, falsafiy va psixologik ijodlari ham tasvirlanadi. Bu nuqtai nazardan shuni tushunish mumkinki, nasriy ijodi o‘zining mifopoetik tabiati bilan ajralib turadi. Shuningdek u yana qo‘shimcha qiladi:
“Har qanday asarni men go‘yo ikki asosiy o‘qqa ajratilgandek tasavvur qila olaman: u yoki yovuzlikning jazolanishi va ezgulikning g‘alaba qilishi g‘oyasining cheksiz variantlaridan biri, yoki go‘zal erkak va go‘zal ayolning bir-biriga azaliy intilishi haqidagi hikoyaning yangi talqinidir.”
Garvard universiteti bitiruvchisi, professional adabiy tanqidchi bo‘lgan John Hoyer Updike amerika va yevropa adabiyoti hamda falsafasini mukammal darajada bilgan. Shu bois uning dunyoqarashi va poetikasiga ta’sir ko‘rsatgan yozuvchi va mutafakkirlar ro‘yxati nihoyatda kengdir: Søren Kierkegaard, Jean-Paul Sartre, Martin Heideggerlardan tortib, Marcel Proust, James Joyce va Vladimir Nabokovgacha bo‘lgan ijodkorlarni o‘z ichiga oladi.
Apdayk ijodiga ta’sir ko‘rsatgan adabiy manbalar ichida ayniqsa James Joyce ta’siri yaqqol seziladi. U XX asrning eng yirik mif yaratuvchilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Vladimir Nabokov ham muhim o‘rin tutadi — Apdaykning o‘z e’tirofiga ko‘ra, aynan u uning asosiy ustozidir.
Ko‘plab adabiyotshunoslar va tanqidchilar Apdayk ijodida aynan shu ikki ijodkorning ta’sirini alohida qayd etadilar. Xususan, ular nafaqat “Kentavr” romanining Ulysses bilan, balki A Portrait of the Artist as a Young Man hamda “A&P” hikoyasining Araby bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadilar.
Adibning ‘‘Braziliya’’(Brazil,1994) nomli ijodi mo‘jizaviy realizm yo‘nalishiga xos bo‘lgan roman sifatida mashhur bo‘ldi.

Mif insoniyat tafakkurining eng qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, borliq, tabiat va jamiyat haqidagi ibtidoiy tasavvurlarni o‘zida mujassam etadi. Jahon adabiyotida mifologik qatlamning badiiy asarlar tarkibida qayta talqin etilishi muhim estetik hodisa

sanaladi Amerikalik yozuvchi Jon Apdaykning “Brazilya” romani ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda mifologik motivlar real hayot voqealari bilan uyg‘un holda tasvirlangan. Asarda Tristan va Izolda afsonasining zamonaviy talqini, Braziliya jamiyatidagi ijtimoiy hamda irqiy tafovutlar, sevgi va taqdir masalalari mifopoetik vositalar orqali yoritiladi. Shu jihatdan, romanda mif va haqiqat uyg‘unligini tadqiq etish asarning badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida mifopoetik tafakkur va realistik diskursning o‘zaro integratsiyasi badiiy ijodning eng muhim ilmiy-estetik muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. XX asr adabiyotida, ayniqsa modernizm va postmodernizm bosqichida, mif nafaqat qadimiy dunyoqarash shakli, balki zamonaviy insonning ruhiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini ifodalovchi universal badiiy kod sifatida qayta tiklandi. Bu jarayon adabiy matnda ko‘p qatlamli ma'no tizimining shakllanishiga, ramziy va arxetipik tafakkurning kuchayishiga olib keldi.

Shu nuqtai nazardan, amerikalik yozuvchi John Updike ijodi zamonaviy nasrda mifopoetik yondashuvning yorqin namunalaridan biri sifatida alohida e’tibor talab etadi. Uning asarlarida, xususan “The Centaur”, “Rabbit” romanlari va “Brazil” asarida mifologik motivlar, arxetipik obrazlar hamda simvolik strukturalar realistik tasvir bilan uyg‘unlashgan holda inson borlig‘ining murakkab falsafiy qatlamlarini ochib beradi.

Updike ijodida mif faqat badiiy bezak yoki intertekstual ishora emas, balki inson va jamiyat, shaxs va tarix, ichki olam va tashqi reallik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi asosiy estetik prinsip sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli uning nasriy asarlarini mifopoetik aspektda o‘rganish zamonaviy adabiyotshunoslik uchun dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur dissertatsiyaning asosiy maqsadi — John Updike nasriy asarlarida mifopoetik tafakkur va realistik diskurs integratsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, hamda ushbu jarayonning badiiy tizimdagi funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Ushbu tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- Mifopoetika tushunchasining nazariy asoslarini yoritish, uning adabiyotshunoslikdagi talqinlari, asosiy kategoriyalari

hamda metodologik imkoniyatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish;

- John Updike ijodining badiiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish, yozuvchining individual uslubi, estetik qarashlari va zamonaviy adabiy jarayondagi oʻrnini aniqlash;

- Badiiy matnda mif va realistik diskurs oʻrtasidagi oʻzaro munosabatni tadqiq etish, ularning oʻzaro taʼsiri va sintezlashuv mexanizmlarini aniqlash;

- Yozuvchining “Brazil” va “The Centaur” romanlarida mifologik qatlamning shakllanishi, uning funksional xususiyatlari hamda arxetipik obrazlar tizimini tahlil qilish;

- Asarda ranglar simvolikasining badiiy yuklamasini ochib berish, ularning mifologik dualizm bilan bogʻliqligini asoslash;

- Sevgi motivining mifopoetik talqinini oʻrganish, uning arxetipik ildizlari va zamonaviy interpretatsiyasini aniqlash;

- Mistik realizm unsurlarini va transformatsiya jarayonini tahlil qilish, badiiy voqelikda mifologik elementlarning qayta yaratilish mexanizmlarini koʻrsatish;

- Asarning kompozitsion tuzilishi va vaqt konsepsiyasining mifologik asoslarini aniqlash, siklik vaqt, mifologik makon va narrativ strategiyalarni oʻrganish;

- John Updike ijodida mifopoetik tizimning umumiy modelini shakllantirish, uning asosiy komponentlari, strukturaviy elementlari va badiiy funksiyalarini tizimli ravishda umumlashtirish;

- Yozuvchi asarlarida ramziy strukturalar, mifologemalar va arxetiplarning oʻzaro bogʻliqligini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish hamda ularning badiiy-estetik ahamiyatini asoslash.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti sifatida John Updike nasriy asarlari, xususan “Brazil” va“Centaur” romani va uning mifologik-poetik tizimi tanlab olindi.Tadqiqotning predmeti esa ushbu asarlarda mifopoetik tafakkur, arxetipik obrazlar, simvolik strukturalar va realistik diskursning oʻzaro uygʻunlashuv jarayonidir.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- mifopoetik tahlil metodi;
- strukturaviy tahlil metodi;
- qiyosiy adabiyotshunoslik metodi;
- semiotik yondashuv;
- narratologik tahlil;
- kontekstual tahlil;

- arxetipik (Jung) yondashuv.

Mazkur metodlar asardagi badiiy va semantik qatlamlarni kompleks tarzda tahlil qilishni yaratib berdi.

Tadqiqotning ilmiy innovatsiyalari. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda John Updike nasriy asarlari birinchi marta mifopoetik tafakkur va realistik diskursning integratsiyasi nuqtai nazaridan murakkab va tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida yozuvchining san’ati bir necha qatlamlardan iborat ekanligi asoslanib, unda mifologik va realistik elementlarning o‘zaro bog‘lanishi ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Xususan, Braziliya romani misolida mifologik obrazlar, arxetiplar, ranglar simbolikasi va mistik realizm unsurlarining badiiy-estetik funktsiyalari chuqur tahlil qilinib, ularning asar kompozitsiyasi va semantik qatlamlaridagi o‘rni aniqlangan. Ushbu elementlarning zamonaviy ijtimoiy, madaniy va falsafiy masalalar bilan bog‘liqligi ilmiy asosda ko‘rsatilgan.

Shu bilan birga, The Centaur romani antik mifologiya, ayniqsa kentavr arxetipi asosidagi mifopoetik modelning haqiqiy hayot voqealari bilan uyg‘unlashuv mexanizmlarini o‘rganish uchun tahlil qilindi. Asarda qadimgi yunon mifologiyasi obrazlarining zamonaviy amerika ijtimoiy kontekstga ko‘chirilishi, ularning ramziy va psixologik funksiyalarini yangi ilmiy yondashuv orqali tahlil qilindi. Natijada, mifologik strukturalar individual inson taqdiri, ota-o‘g‘il munosabatlari va ijtimoiy muammolar bilan mustahkam bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda Updike ijodining mifopoetik tafakkuri nafaqat alohida asarlarda, balki yozuvchining butun ijodiy tizimini qamrab oladigan konseptual model sifatida ko'rib chiqildi. Xususan, Brazil va The Centaur romandagi mif, arxetip va ramzlarning turli ko‘rinishlarda aks etishi va yagona badiiy tamoyil asosida birlashishi qiyosiy tahlil asosida ilmiy ravishda umumlashtirildi. Shuningdek, dissertatsiyada quyidagi tomonlar ilmiy yangilik sifatida taklif etildi:

Mifopoetika va realizm o‘rtasidagi munosabatlarning yangi nazariy talqini yaratilgan;

Braziliya romanida ranglar, simvolika va mifologik dualizmning semantik-struktural xususiyatlari tizimli tahlil qilindi;

Asarida centaur mifologik arxetiplarning o'zgarishi va zamonaviy tushunchalari taqdim etildi;

Sevgi motivining mifopoetik talqini arxetipik va falsafiy qatlamlar bilan uyg‘unlikda tashkil etilgan;

Mistik realizm va transformatsiya jarayonining yozuvchining badiiy tafakkuridagi o‘rni aniqlanib, uning funksional ahamiyati taqdim etildi;

Vaqt va makon tushunchasining mifologik asoslari va ularning narrativ strategiyadagi ahamiyati har ikkala romanda solishtirib o'rganildi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan nazariy xulosalar va tahliliy yondashuvlar adabiyotshunoslikning turli yo‘nalishlarida, xususan, zamonaviy roman nazariyasi, mifopoetika, postmodern adabiyot va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalarida samarali foydalanilishi mumkin. Tadqiqotda yaratilgan ilmiy fikrlar badiiy matnni mifologik va realistik qatlamlar uyg‘unligi asosida kompleks tahlil qilish metodologiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiya natijalari, ayniqsa, John Updike ijodini o‘rganish doirasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning asarlariga nisbatan yangi — mifopoetik yondashuvni qo‘llash imkonini yaratadi. Xususan, Braziliya va The Centaur romanalari misolidagi tahlillar boshqa yozuvchi asarlarini o‘rganish uchun ham umumiy usul sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot materiallari va ularning ilmiy xulosalari oliy ta’lim muassasalarida “Jahon adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Zamonaviy adabiy jarayon”, “Modern proza tahlili” kabi fanlarni o‘qitishda qo‘shimcha ilmiy manba sifatida foydalaniladi. Ular asosida maxsus kurslar, seminarlar va amaliy darslar uchun o‘quv-uslubiy materiallar yaratish imkoniyati mavjud.

Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy-tadqiqot faoliyatida foydalanish uchun, mifopoetika, arxetiplar nazariyasi va ramziy tahlilga oid kelgusi izlanishlar uchun metodologik asos bo‘ladi. Dissertatsiyada taqdim etilgan yondashuvlar badiiy matnni tahlil qilishning yangi usullarini ishlab chiqishda, ayniqsa, mif va realizmni birlashtirishni o‘rganishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ish natijalari tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun ham foydali bo‘lishi mumkin, chunki unda badiiy matndagi ramzlar, arxetiplar va mifologik kodlarni to‘g‘ri talqin qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa tarjimonlar uchun matnning chuqur semantik qatlamlarini taqdim etishda muhim

nazariy poydevor vazifasini o'ynaydi. Umuman olganda, ushbu dissertatsiya natijalari badiiy asarlarni zamonaviy ilmiy uslublar asosida tahlil qilish, talqin qilish va oʻqitish jarayonini kengaytirishga yordam beradi

Dissertatsiya tuzilishi. Mazkur dissertatsiya kirish qismidan, uchta asosiy bobdan, xulosa qismidan va foydalangan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, tadqiqotning ichki mantiqiy tuzilishi belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq ravishda shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning ahamiyati asosga olinadi, tadqiqot maqsad va vazifalari aniqlanadi, obyekti va predmeti belgilab olinadi, ilmiy yangilik va amaliy ahamiyati tasvirlanadi. Bundan tashqari, tadqiqotning metodologik asoslari, nazariy manbalari va ishning tuzilishi haqida qisqacha maʼlumot taqdim etiladi.

Birinchi bob ilmiy xarakterga ega boʻlib, unda mifopoetika tushunchasining nazariy asoslari taqdim etiladi. Ushbu bobda mif, arxetip, mifologema, ramz kabi tushunchalarning adabiyotshunoslikdagi talqinlari tahlil qilinadi, mifopoetik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari koʻrib chiqiladi. Bundan tashqari, mifopoetika va realizm oʻrtasidagi aloqalar, ularning badiiy matndagi oʻzaro moslashuv mexanizmlari ilmiy tarzda asoslanadi.

Ikkinchi bob amaliy-tahliliy yoʻnalishga ega boʻlib, unda John Updike ijodining badiiy-falsafiy xususiyatlari tadqiq qilinadi hamda yozuvchining Brazil romani misolida mifopoetik qatlam batafsil tahlil etiladi. Xususan, asarda mifologik tasvirlar, arxetiplar, ranglar ramzi, sevgi motivi va mistik realizm komponentlarining badiiy roli taqdim etiladi. Shu bilan birga, romanning kompozitsiyasi, vaqt va makon tushunchalari hamda ularning mifologik poydevorlari o'rganiladi.

Uchinchi bob umumlashtiruvchi xususiyatga ega boʻlib, unda John Updike ijodida mifopoetik modelning asosiy xususiyatlari koʻrsatib beriladi. Ushbu bobda yozuvchi The Centaur romanini qiyosiy tahlil qilgan holda mifologik tafakkurning turli koʻrinishlari, arxetipik tuzilmalar va ramziy tizimlarning oʻzaro bogʻlanishi aniqlanadi. Natijada, Updike'ning ijodiga xos boʻlgan yagona mifopoetik tizim modeli yaratiladi va uning asosiy tarkibiy qismlari ilmiy ravishda tasvirlanadi.

Dissertatsiyaning **xulosa qismida** amalga oshirilgan tadqiqot natijalari bir joyga toʻplangan holda, asosiy ilmiy

xulosalar koʻrsatib beriladi va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun ahamiyatli taklif va tavsiyalar taklif etiladi

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati tadqiqot jarayonida qoʻllanilgan ilmiy materiallarni oʻz ichiga olib, ishning nazariy-metodologik asoslarini koʻrsatadi.

Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar tahlili (sharhi). Jon Apdayk ijodi XX asr Amerika adabiyotining ahamiyatli voqealaridan biri deb koʻplab adabiyotshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Uning nasriy asarlarida inson ruhiyati, jamiyatdagi axloqiy tushkunlik, oilaviy munosabatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari chuqur badiiy sharhlanadi. Shu sababli Apdayk ijodini turli nazariy yondashuvlar orqali oʻrganishga oid keng koʻlamli ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan.

Amerikalik tanqidchi Harold Bloom Jon Apdayk ijodini estetik jihatdan yuqori baholaydi va uning asarlarida kundalik hayot falsafiy hamda ramziy ma'no kasb etishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi nazarida, yozuvchi oddiy haqiqatni chuqur ruhiy mazmun bilan to'ldirgan ijodkordir. Bu qarash Apdayk nasrining mifopoetik xususiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Joyce Carol Oates zamonaviy uslubga e’tibor qaratib, uning nasrida tilning musiqiyligi, obrazlar va ichki psixologik tahlil asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi fikricha, yozuvchi qahramonlar ichidagi hissiyotlarni ifoda etish orqali inson ruhiyati xususiyatlarining yashirin jihatlarini namoyish etadi.

Mifopoetika nazariyasining asosiy manbalaridan biri Karl Gustav Yungdir. Uning arxetiplar haqidagi tushunchalari Apdayk asarlaridagi qahramonlar xarakterini oʻrganishda asosiy metodologik poydevor boʻlib xizmat qiladi. Yungga koʻra, qahramon, ona, sayohat, qayta tugʻilish kabi ramzlar insoniyatning umumiy ongida mavjud boʻlgan universal naqshlardir. Apdayk romanlarida ham shunday arxetipik qahramonlar koʻplab mavjud.

Mircha Eliade insoniyat xotirasida saqlanadigan muqaddas tajribani talqin etadi. Uning nazariyasi asosida Apdayk nasridagi mifologik qatlam, vaqt va makonning simvolik talqini, shuningdek, qahramonlarning ruhiy yangilanish jarayonlarini oʻrganish mumkin.

Rus olimi Mixail Baxtin roman poetikasi haqida fikrlarini bildirar ekan, koʻp ovozlilik, dialoglilik va vaqt-makon birligi masalalarini taqdim etadi. Ushbu usul Apdayk romanlaridagi turli ijtimoiy qatlamlar, qarama-qarshi worldviewlar va murakkab

kompozitsion strukturalarni oʻrganishda muhim nazariy poydevor yaratadi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida mifopoetika mavzulariga qiziqish oshib bormoqda. Xususan, zamonaviy nasrda arxetiplar va ramzlar tizimi, mifologik tafakkurning badiiy matndagi ahamiyati boʻyicha tadqiqotlar mavjud. Biroq Jon Apdaykning nasriy asarlaridagi mifopoetik xususiyatlarni maxsus monografik yoʻnalishda tadqiq etish ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan. Shu jihatdan mazkur dissertatsiya Jon Apdayk nasrini mifopoetik nuqtai nazardan kompleks oʻrganishga qaratilgani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda ishlatilgan metodologiyaning izohi. Ushbu tadqiqotda Jon Apdaykning nasriy asarlaridagi mifopoetik xususiyatlarni tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Asosiy usul sifatida mifopoetik tahlildan foydalanilib, asardagi mifologik motivlar va arxetipik obrazlar oʻrganildi. Strukturaviy tahlil orqali syujet va kompozitsion tuzilishi oʻrganildi.Shuningdek, qiyosiy adabiyotshunoslik usuli yordamida Apdayk asarlari boshqa adabiy namunalarga taqqoslandi. Semiotik yondashuv ramzlar va belgilar sistemasi haqida ma'lum qilishda yordam berdi, narratologik tahlil esa hikoya qilish uslubi va vaqt-makon aloqalarini ochib berdi. Bundan tashqari, kontekstual tahlil asarning tarixiy va ijtimoiy kontekstini inobatga oldi, arxetipik (Yung) yondashuv esa obrazlarning umumiy psixologik modellarga mos kelishini aniqlashda yordam berdi. Ushbu usullar birgalikda asarni murakkab va chuqur ilmiy tahlil qilish imkonini taqdim etdi.

Ish tuzilmasining tavsifi - mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat boʻlib, asosiy matn 80 sahifadan iboratdir.